

Matbuot xizmati

Turdiqulov Xushmurod Lapasovich

Matbuot kotibi

+998 (71) 207-67-68 (134)

+998 (71) 239-14-06

press@uzavtoyul.uz

Toshkent shaxar 100000,
Mustaqillik shox ko'chasi, 68A uy

O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi Matbuot - xizmatining asosiy vazifalari va funksiyalari

- qo'mitaga nisbatan ijtimoiy fikrning ahvolini hamda mahalliy, respublika va xorijiy ommaviy axborot vositalari munosabatini tahlil qilish va ular to'g'risida qo'mita rahbariyatini xabardor qilish
- qo'mita rahbariyati tomonidan belgilanadigan axborot siyosatinishakllantirish va amalga oshirishda qatnashish;
- qo'mita faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarningmilliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishini ta'minlash;
- milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida qo'mitafaoliyatining dolzarb jihatlarini, tegishli sohadagi yagona davlat siyosatini amalgaoshirish masalalarini yoritish;
- qo'mita rasmiy veb-saytida qo'mita faoliyatiga daxldor axborotva yangiliklarni maqola, xabar va tahliliy materiallar shaklida yoritib borish,veb-saytdagi axborot resurslarini tashkil etish, ularning samarali faoliyatini ta'minlash;
- Xizmat oldida turgan vazifalarni samarali hal etish uchunzarur bo'lgan axborotlarni qo'mitaning boshqa bo'linmalari bilan o'zaro hamkorlikda to'plash va ishlash;
- ommaviy axborot vositalari uchun xabarlarini (press-relizlar,byulletenlar, sharhlar va shu kabilarni) tayyorlash va tarqatish;
- qo'mita faoliyatiga doir masalalar bo'yicha bosma materiallarni tayyorlash hamda milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilish, tele- va radio eshittirishlarni tashkil etish, tegishli sohadagi davlat siyosatini amalga oshirish;
- qo'mita rahbariyati va xodimlarining ommaviy axborot vositalari vakillari bilan matbuot

- konferentsiyalari, brifinglari, intervyulari va boshqa uchrashuvlarini tashkil etish;
- qo'mita faoliyatiga doir masalalar bo'yicha ijtimoiy fikrni hamda milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari pozitsiyasini o'rganishga doir tahliliy ishlarni amalga oshirish. Qo'mita rahbariyatiga axborot berish uchun e'lon qilingan dolzarb materiallar sharhlarini tayyorlash;
 - ommaviy axborot vositalari bilan axborot-ma'lumotnoma ishlarini amalga oshirish uchun qo'mita faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha tahliliy, statistik va boshqa materiallarning tizimlashtirilgan ma'lumotlar bankini tashkilotish;
 - qo'mita faoliyatini eng to'liq va xolisona yoritish maqsadida milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari hamda jurnalistlar bilan o'zaro hamkorlikni amalga oshirish;
 - internet tarmog'ida qo'mitaning veb-saytidagi axborotlarni tashkil etish va uni zamonaviy darajada yoritish.
 - Xizmat o'z vakolatlarida o'zida milliy va xorijiy axborot agentliklari hamda ommaviy axborot vositalarining qo'mita faoliyati to'g'risidagi materiallarni tayyorlashda ko'maklashish to'g'risidagi buyurtma nomalari va so'rovlarini ko'rib chiqadi.